

MA'NAVIYATGA TAXDID –O'ZLIGIMIZ VA KELAJAGIMIZ TAXDIDIGA BIR NAZAR

Nomozova Durdona Shahriddinovna,

Musiqqa madaniyat fakulteti,

Vokal va Cholg'u ijrochilik

kafedrasining I-kurs talabasi

Muxamedziyanov Kamil Taxirovich,

Ilmiy rahbar, Musiqqa madaniyat

fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining ma'naviyatga tahdid. Globallashuv jarayonlar, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya dasturi asosida tayyorlangan. Maqolada bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz.

Kalit so'zlar: Globallashuv, obektiv, g'oya, fikr, fenomen.

“Ma'naviyat “tushunchasi O'zbekistonda mohiyatan tamoman yangi jamiyat qurish jarayonida ma'naviyat, iqtisodiyot bilan birga, ustun yo'nalishlardan hisoblanmoqda Islom Karimov: xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vasifasidir, - deya bejiz ta'kidlanmagan edilar. Prezidentimiz fikrini davom ettirib, “ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch – qudratidir”, deb alohida uqtirganlar. Ma'naviyat atamasi, rasmiy xujjatlarda, ilmiy adabiyotlarda, matbuotda ko'p qo'llanishiga qaramasdan, uni ilmiy tushuncha sifatida alohida tahlil va ta'rif ettirish foydadan holi emas. Ma'naviyat va uning o'zagidan yasalgan “ma'naviy” sifatlashining qo'llanish davrasi keskin kengayib, ularning lug'aviy va atama sifatida o'rganishni, uning bilan o'zaro munosabatini tahdid qilishni taqazo etmoqda. Ma'naviyat harakatdagi ong, dunyoqarash, iroda, urf – odatlar, madaniy qadriyatlar tizimi hamda u aqliy va hissiy muhit sifatida ijtimoiy hayotning barcha

sohalari va shakllari bilan bevosita bog'liq. Ko'plarda ularga nisbatan aqliy, g'oyaviy – mafkuraviy negiz vazifasini o'taydi, ammo o'zi ham ijtimoiy hayot yangiliklari hisobiga boyib boradi.

Shaklan rang – baranglik, mazmunan teranlik kasb etadi. O'zbek xalqining ma'naviyati uning tarixan bosib o'tadigan iqtisodiy–ijtimoiy, siyosiy, madaniy rivojlanish yo'liga, iymon – e'tiqodiga, dunyoqarashiga, irodasiga, jamiyatda qaror topgan muhitga mos ravishda shakllangan va kamol topib bormoqda, ma'naviyatimizning gurkirab yuksalgan yoki tanazzulga yuz tutgan davrlari bo'lgan. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "halqimizning ma'naviy poydevori – bo'lajak davlatimizning tayanchlari juda qadimiy va mustahkam. Buni hech kim inkor qila olmaydi. Tariximiz necha –necha ming yillarga borib taqaladi. "Ma'naviyatimizning bugungi kundagi ayrim xususiyatlarini, o'ziga xos jihatlarini to'g'ri tushunish uchun uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar to'g'risida gapirish kerak. Ma'naviyatning o'zak tushunchalari, avvalo, tarixan vujudga kelgan tabiiy iqlim sharoitlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish xususiyatlari ta'sirida shakllanadi.

Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shu obektiv tan olish kerak bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyot va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar bilan chambarchas bog'lanib borayapti. Globallashuv–bu hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tamoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos bu davrni turlicha tariflab, har hil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axboratlashuv davri sifatida izohlanmoqda. Nega deganda hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekasida qanday bir voqea yuz bermasin, odamzot bu xaqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas. Ana shunday globallashuv fenomen haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, xayotiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishini ta'kidlash lozim. Umumiy nuqtaiy

nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma'no – mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy biologik globallashuv muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda.

Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko'rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda yovuzlik yo'llarida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixini, uning tafakur va rivojini tadrijiy ravishda ko'zdan kechiradigan bo'lsak marralarga chorlaydi ezgu g'oya va ta'limotlar bilan yozuv va zararli g'oyalar o'rtasida azaldan kurash mavjud bo'lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko'ramiz.

Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgari ha bu voqeani bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotidan yuz yillar orqada qolib ketishi xech gap emas.

O'tgan yillar davomida dunyoda va mintaqamizda ro'y bergan, biz bevosita o'z boshimizda kechirgan voqealar, mafkuraviy jarayonlarning rivoji bu xulosaning to'g'ri ekanini qayta-qayta isbotlamoqda. Mustaqil O'zbekiston ham jahonning eng ma'rifatli mamlakatlari orasida o'z o'rnini topib, barqaror rivojlanish uchun mustaqil dunyoqarashiga ega bo'lgan, milliy iftixor tuyg'usi bilan yo'g'rilgan, ammo millatchilik va milly mahdudlikdan holi, hur va erkin fikrlovchi, ayni vaqtda fuqorolik ma'sulyatini to'g'ri tushunadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'z kasb-kori, ijtimoiy muhiti talab qiladiga darajada o'zlashtirgan shaxsni tarbiyalashi lozim.

Buning uchun jamiyatlar ikki yo'nalishda ish olib boriladi. Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya. Hozirgi vaqtlarda ko'z o'ngimizda dunyoning giopoletik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kamunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuraviy tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaqtda, barchamizga ayonki : Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaxolatga

qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongida ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Biz ham farzandlarimizni ona vatanga munosabat, boy tariximizga, ota bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy imunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz milliy o'zligini shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin.

Yosh avlodimizni turli ma'naviy tajavvuzlardan himoya qilish xaqida gapirilganda, nafaqat halqimizning ulug'laydigan buyuk xususiyatlar, ayni paytda buyuk xususiyatlar, ayni paytda uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan eski zamonlardan qolib kelayotgan noma'qul odatlar haqida ham achchiq so'z yuritishimiz zarur. Birinchi navbatta xudbinlik va loqaydlik, karupsiya, manfaatparstlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xolos etish to'g'risida o'ylashimiz lozim. Men bu o'ta muhim vazifa keng jamiyatchiligimizning, ayniqsa ziyolilarimiz, olim va adiblarimiz, san'ati va madaniyati sohasiga bag'ishlangan barcha insonlarning doimiy diqqat markazida bo'lishini istardim.

Agar bizlar ahil bo'lsak el yurt manfaati yo'lida bir tan-u bir jon bo'lib yashasak, o'zimizda sotqin chiqmasa, o'zbek xalqini hech kim hech qachon yenga olmaydi, lekin birovning hayotiga, yon atrofda sodir bo'layotgan voqea xodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo'lib yashaydigan odamlardan qo'rqish kerak. Ulardan hech qachon yaxshilik chiqmaydi, chunki ularning na iymon, na iroda bo'ladi. Ularning hatto o'z xalqi va vatani taqdiriga ham bamisoli begona odamdek qaraydi.

Har bir inson hayotida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan ana shunday fikrlarni unib o'sib kelayotgan yoshlarning ongiga singdirish ularning hayot sinovlariga bardoshli etib tayyorlash bizning ota-ona, ustoz-murabbiy, raxbar-rahnamo sifatidagi, shu muqaddas yurt fuqarosi sifatidagi muqaddas burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I. A. Karimov “Yuksak ma’naviat yengilmas kuch” Toshkent. Ma’naviat nashriyoti 2008-yil.
2. Sh. M. Mirziyoev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qattiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘tyaramiz” Toshkent. O‘zbekiston 2017-yil.
3. M. Rizaeva “Yosh avlod keljagi buyuk davlat” Toshkent Cho‘lpon nashriyoti 2003-yil.